

**“BOSHLANG`ICH SINFLARDA ONA TILI VA O`QISH DARSALARINI TASHKIL
ETISH TEKNOLOGIYALARI”**

Yusupova Nigora Ramazonovna

Buxoro viloyati Jondor tumani 13-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya: *Hozirda mamlakatimizda ona tilini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, maktablarda, ta'lim muassasalarida ona tilini o'qitishda turli innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanish ustuvorlik kasb etmoqda. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang`ich sinflarida ona tili va o'qish fanlarini tashkil etish texnologiyalari va dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishning samarali jihatlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ilmiylik, tizimlilik, izchillik, onglilik, ko'rsatmalilik, faollik, mustaqillik prinsiplari, ijodiy tafakkurni o'stirish, matn yaratish.*

Аннотация: В настоящее время в нашей стране уделяется большое внимание развитию родного языка, и приоритетным становится использование различных инновационно-педагогических технологий в обучении родному языку в школах и общеобразовательных учреждениях. В данной статье рассказывается о технологиях организации предметов родного языка и чтения в начальных классах общеобразовательной школы и об эффективных аспектах использования дидактических игр в ходе урока.

Ключевые слова: научность, систематичность, системность, сознательность, познавательность, активность, принципы самостоятельности, развитие творческого мышления, текстотворчество.

Abstract: *Currently, in our country, great attention is paid to the development of the mother tongue, and the use of various innovative and pedagogical technologies in teaching the mother tongue in schools and educational institutions is becoming a priority. This article talks about the technologies of organizing the mother tongue and reading subjects in the elementary grades of general secondary schools and the effective aspects of using didactic games in the course of the lesson.*

Key words: scientificity, systematicity, consistency, consciousness, instructiveness, activity, principles of independence, development of creative thinking, text creation.

Hozirgi kunga qadar adabiy ta`lim ona tili o`qitish metodikasining tarkibida o`rganilib kelinayotgan edi. O`rta umumiy talimda adabiyot o`qitish metodikasi mustaqil fan sifatida o`z statusiga ega bo`lgani sababli boshlang`ich talimda ham adabiy talim metodikasiga metodist olimlar metodikaning mustaqil fani sifatida qarash lozimligini ilmiy-metodik jihatdan asoslashga harakat qilmoqdalar. Insonning tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi. Shunday farzandlarimiz borki, ular umumiy o`rta ta'lim jarayonida ma'lum yonalish bo`yicha o`zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Bu boylikdan oqilona foydalanish, uni to`g`ri yonaltirish lozim”, - dedi I.A.Karimov o`zining “Barkamol avlod orzusi” asarida. Boshlangich sinflarda o`tiladigan ona tili, matematika, o`qish, odobnama, tabiatshunoslik darslari o`z mohiyati, maqsad va vazifalariga kora ta'limga alohida o`rin tutadi. Negaki

ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'lismiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlangich ta'lism darslariga oquvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlangich sinflardanoq « dars » degan muqaddas so`zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o`quvchilarni darsga bo`lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o`qituvchilar turli didaktik o`yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod – ta'lism jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o`zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o`zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo`llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari- norasmiy bahs- munozaralar o`tkazish, o`quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o`qish, o`rganish, seminarlar o`tkazish, o`quvchilarni tashabbus ko`rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo`lib ishslash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Umumiy o'rta ta'larning bir bosqichi bo`lgan boshlang'ich ta'lism 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturlarimizda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'larning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

* o'quvchilarning qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqlashtirilgan yondashuvni joriy etish;

* ta'lism berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamонавиу о'кув-услубиу мајмумаларини юратиш ва о'кув-тарбия jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo.

Mashhur rus olimi K.D.Ushinskiy boshlang'ich mакtab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. “Ajoyib o'qituvchi bo`lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi. Bola ikki-uch yil ichida shunchalik ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir”, - deydi u. Boshlang'ich ta'larning 1-sinflarida bolalarga savod o'rgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu jarayon quyidagi 2 davrga bo'linadi:

1. alifbogacha tayyorgarlik davri. (bu davr 2 haftani qamrab oladi).

2. alifbo davri (o'quv yilining 31-dekabrgacha davom etadi).

Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o'quvchilarni mакtab, sinf, tartib-intizom qoidalari va o'quv qurollari bilan tanishtirish, nutq o'stirishga oid mashqlar o'tkazib, fonematik eshitishni oshirishdan iboratdir. Mazkur davrning o'zi ham quyidagi 2 bosqichga bo'linadi:

a) harf o'rganilmaydigan bosqich (1 hafta).

b) unli tovush va harf o'rganiladigan bosqich (1 hafta).

Birinchi bosqichda o'quvchilarga og'zaki va yozma nutq, gap, so'z, bo'g'in va tovushlar, nutqning gaplardan, gaplarning so'zlardan tuzilishi, so'zlarning bo'g'lnarga bo'linishi, bo'g'lnarning tovushlardan tashkil topishi haqida ma'lumot beriladi, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o'rgatiladi, ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda maxsus nusxalar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga “Alifbe”da berilgan rasmlar asosida hikoyalarni tuzdiriladi. Maktab kutubxonasidagi kitoblardan foydalanib o'zları bilgan she'r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo'shiqlar, latifalardan ayttiriladi. Bundan tashqari ta'lism jarayonida yaxshi samara berishi mumkin bo'lgan metodlardan yana biri tayanch so'zlar

asosida gap tuzdirishdir. “Alifbe” kitobi sahifalaridagi so‘zlarning talaffuzi, ularning o‘qilishi va ma’nolari ustida ishlash kabi mashg‘ulotlar uyushtiriladi. Bu tarzdagi ishlarning har bir darsda mavzularga bog‘liq ravishda izchil davom ettirib borilishi dars samaradorligini oshiradi. Bu bosqichdagi yozuv darslarida o‘quvchilar yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtirilib, harf elementlarini yozishga o‘rgatiladi, ularda namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash, o‘z-o‘zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish, chamlab yozish kabi ko‘nikmalar hosil qilinadi. Ikkinci bosqichda esa unli tovush va harflar o‘rgatiladi. Bunda quyidagi uch xususiyatni o‘quvchilar tomonidan amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim:

1. talaffuzda (og‘izda) to‘siqqa uchramaslik;
2. cho‘zib aytilishini nazorat qilish;
3. faqat ovozdan tashkil topishi.

Shuningdek, bu bosqichda o‘quvchilarini tovush bilan harfni farqlashga o‘rgatish ko‘zda tutiladi. Ushbu bosqichdanoq tovush va harf o‘rtasidagi chegaraga qat’iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqidagi ma’lumotlar kitob ochtirilmay beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko‘rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid o‘ziga xos xususiyatlar, ya’ni, tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz, harflarni yozamiz, ko‘ramiz va o‘qiymiz. Bu tushunchalar bolalarga ularning o‘zlashtirishlarini hisobga olgan holda sekin-asta tushuntirila boriladi. Alifbo davri. 31-dekabrgacha davom etib, unda o‘quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush-harflar bilan tanishtiriladi. Undoshlar osondan qiyinda tamoyili asosida joylashtiriladi. Oldin sonor tovushlar *n*, *m*, *l* kabilar, keyin esa sirg‘aluvchi va boshqa undoshlar, ikki tovushni ifodalaydigan *j*, harf birikmali (*ng*, *sh*, *ch*), tovush bildirmaydigan tutuq belgisi (*/*) bilan tanishtiriladi. O‘quvchilarning tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar o‘qishni muvaffaqiyatlari egallashlari uchun bo‘g‘inga bo‘lish, bo‘g‘in chegarasini aniqlash, bo‘g‘indan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan bo‘g‘in tuzish va o‘qish, bo‘g‘in-tovush, tovush-harf tahlili kabi mashqlardan foydalaniлади. Bu davrda bo‘g‘inlab o‘qish asosi shakllantiriladi, ikki harfli ochiq (*na*, *ni*, *nu* kabi), ikki harfli yopiq (*in*, *ol*), kabi uch harfli yopiq bo‘g‘inlarni (*mon*, *lim*) o‘qishga o‘rgatiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limning 1-4 sinflari bola hayotida muhim davrni tashkil qilib, o‘quvchining keyingi davrdagi o‘qish jarayoniga bo‘lgan tasavvurida eng ahamiyatlari davrdir. Dars mashg‘ulotlari vaqtida har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolaning o‘qish, o‘zlashtirish, bilim, ko‘nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko‘rsatkichlarni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-3931-sonli Qurori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012

4. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya, 2008.